MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLİM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH

Yuldashev Fozil Turapovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute v.b. professori., PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilayotgan kichik biznes subyektlarini tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishning amaldagi holati, mavjud muammolari va takomillashtirish istiqbollari chuqur o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida kichik biznesning iqtisodiy salohiyati, ularning tarmoqlar bo'yicha tarkibiy ulushi, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qo'llanilayotgan bank metodologiyasi hamda tijorat banklarining kredit siyosati atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, Mikrokreditbank, Agrobank, Xalq banki va Ipak Yo'li bankining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribasi solishtirma tahlil asosida yoritilib, kreditlash mexanizmidagi mavjud kamchiliklar aniqlanadi. Tadqiqot ilmiy, statistik va amaliy manbalarga tayangan holda olib borilgan bo'lib, investitsion kreditlar samaradorligini oshirish, tijorat banklarining kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznesni rivojlantirish, tijorat banklarining investitsion kreditlari, moliyalashtirish metodologiyasi, kredit siyosati, kredit kafilliklari, bank tizimining iqtisodiy salohiyati, mikrokredit mexanizmlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari, kredit resurslaridan samarali foydalanish, foiz stavkalari dinamikasi, innovatsion moliyalashtirish yondashuvlari.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the current state, existing problems, and prospects for improving the financing of small business entities one of the key drivers of Uzbekistan's economic development-through investment loans issued by commercial banks. The study examines the economic potential of small businesses, their sectoral distribution, the banking methodologies used in financing investment projects, and the credit policies adopted by commercial banks. Furthermore, the experience of Mikrokreditbank, Agrobank, Xalq Bank and Ipak Yo'li Bank in supporting small businesses through investment lending is analyzed comparatively, identifying existing shortcomings in lending mechanisms. The research is based on scientific, statistical, and practical sources and offers recommendations aimed at increasing the effectiveness of investment loans and strengthening the role of commercial banks in financially supporting small business entities.

Key words: small business development, investment loans of commercial banks, financing methodology, credit policy, loan guarantees, economic potential of the banking system, microcredit mechanisms, financial support instruments, efficient use of credit resources, interest rate dynamics, innovative financing approaches.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется текущее состояние, существующие проблемы и перспективы совершенствования финансирования субъектов малого бизнеса - одной из ключевых движущих сил устойчивого развития экономики Узбекистана - посредством инвестиционных кредитов коммерческих банков. В ходе исследования изучаются экономический потенциал малого бизнеса, его отраслевое распределение, методология банковского финансирования инвестиционных проектов, а также кредитная политика коммерческих банков. Кроме того, на основе сравнительного анализа рассматривается опыт Микрокредитбанка, Агробанка, Народного банка и банка «Ипак Юли» в поддержке малого бизнеса через предоставление инвестиционных кредитов, выявляются недостатки в действующих механизмах кредитования. Исследование основано на научных, статистических и практических источниках и направлено на разработку рекомендаций по повышению эффективности инвестиционного кредитования, а также усилению роли коммерческих банков в финансовой поддержке субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: развитие малого бизнеса, инвестиционные кредиты коммерческих банков, методология финансирования, кредитная политика, кредитные гарантии, экономический потенциал банковской системы, механизмы микрокредитования, инструменты финансовой поддержки, эффективное использование кредитных ресурсов, динамика процентных ставок, инновационные подходы к финансированию.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi va xizmatlar kabi asosiy tarmoqlarni qamrab olgan keng ko'lamli subyektlar majmuasini tashkil etadi. So'nggi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 51,2 foizni tashkil etgan. 2025-yilning birinchi yarmida esa ushbu ko'rsatkich 49,6 foiz darajasida baholangan. Shu bilan birga, bandlikdagi ulushi ham



yuqori bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan bandlik mamlakatdagi jami bandlikning qariyb 75-76 foizini tashkil etmoqda.

Biroq, O'zbekiston sharoitida kichik biznesni moliyalashtirish jarayonida qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, xalqaro ekspert baholariga ko'ra, moliyaviy bo'shliqning mavjudligi hamda investitsion kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi saqlanib qolmoqda. Shu munosabat bilan, mazkur dissertatsiyada kichik biznesni tijorat banklarining investitsion kreditlari orqali moliyalashtirish holati chuqur tahlil qilinadi, amaldagi metodologiyadagi kamchiliklar aniqlanadi hamda ularni ilmiy asosda takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Nazariy adabiyotlarda bank kreditlari kichik biznesni moliyalashtirishning yetakchi instrumentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklar kichik va o'rta biznes subyektlariga kredit ajratishda, odatda, ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Bunga ma'lumotlarning yetishmasligi, aktivlar va kapital hajmining pastligi, shuningdek, garov bazasining zaifligi kabi omillar sabab bo'lib, ushbu holatlar kichik biznes subyektlarining kredit resurslariga bo'lgan kirishini cheklaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tadqiqotlarda kredit kafillik jamg'armalari (Credit Guarantee Schemes – CGS) kabi mexanizmlarni joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu mexanizmlar kreditorlar riskini kamaytirish bilan birga, kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston amaliyotida ham Markaziy bank va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash doirasida shunga o'xshash kafillik mexanizmlarini joriy etish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, investitsion kreditlash nazariyasi va amaliy tajriba banklar tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli investitsion kreditlarni bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, foiz stavkalarini bozor stavkalariga yaqinlashtirish, garov va kafillik talablarini yumshatish orqali kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish sharoitlarini yaxshilash mumkin.

Mazkur dissertatsiya aynan ushbu yondashuvni taklif etadi, ya'ni investitsion kreditlash hajmini kengaytirish, kredit kafillik mexanizmlarini rivojlantirish, banklarning kredit siyosatini kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirish hamda moliyaviy shaffoflik va ma'lumot almashuvini mustahkamlash orqali kichik biznes rivojiga xizmat qiluvchi barqaror kredit muhitini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy va amaliy manbalar ushbu yo'nalishning nazariy asoslari, institutsional sharoitlari hamda amaliy tajribalarini keng qamrab oladi.

Stiglitz va Weiss (1981) tomonidan ishlab chiqilgan kreditni ratsionallashtirish nazariyasi kichik biznes subyektlarining investitsion kreditlarga cheklangan kirish imkoniyatlarini izohlovchi asosiy nazariy konsepsiya hisoblanadi. Mualliflar axborot nomutanosibligi mavjud bo'lgan bozor sharoitida banklar yuqori risklar sababli kredit ajratishni cheklashi mumkinligini va bu holat, o'z navbatida, kichik biznesni moliyalashtirish jarayonini murakkablashtirishini ilmiy asoslab bergan.

Demirgüç-Kunt va hammualliflari (2023) rivojlanayotgan bozorlar bank tizimida moliyaviy barqarorlik va daromadlilik omillarini tahlil qilib, kredit siyosati hamda investitsion faoliyatning banklar barqarorligiga ta'sirini baholaydi. Ushbu tadqiqot tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlashdagi faolligi moliya bozorlari barqarorligi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi investitsion kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, banklar faoliyatini liberallashtirish hamda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini kengaytirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Markaziy bankning statistik byulletenlari (2024) esa investitsion kreditlar hajmi, foiz stavkalari dinamikasi va bank aktivlari tarkibi bo'yicha muhim empirik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xalqaro moliya institutlari, jumladan IFC (2023) va YETTB (2024) hisobotlarida O'zbekistonda kichik biznesning moliyaviy bo'shlig'i, kredit resurslariga kirishdagi to'siqlar hamda investitsion moliyalashtirishni kengaytirish uchun zarur institutsional shart-sharoitlar xalqaro standartlar asosida tahlil qilingan. Osiyo taraqqiyot banki (OTB, 2023) esa kichik va o'rta biznes sektorini rivojlantirishda kredit infratuzilmasini modernizatsiya qilishning muhimligini alohida ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham mazkur muammo keng yoritilgan. Jumladan, G'aniyev va Raxmatov (2022) tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan kreditlash metodologiyasini tahlil qilib, kichik biznesning investitsion kreditlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan. Karimov va Abdurahmonov (2023) bank aktivlari tuzilmasi va daromadlilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, investitsion kreditlar portfeli sifati banklar uchun strategik ahamiyatga ega ekanini asoslab bergan. Abdullaeva (2021) esa bank ishi nazariyasini amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirib, investitsion kreditlash mexanizmlarining ilmiy asoslarini yoritib bergan.



Shuningdek, Mikrokreditbank (2023), Agrobank (2023), Xalq banki (2023) va "Ipak Yo'li" banki (2024) hisobotlari kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishda banklarning amaliy yondashuvlari, kredit portfeli tarkibi, kredit siyosati hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik jarayonlarini ochib beradi. Ushbu manbalar O'zbekistonda investitsion kreditlashning real amaliyoti, uning afzalliklari va mavjud muammolarini aniqlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni tijorat banklari orqali investitsion kreditlar bilan moliyalashtirish samaradorligi quyidagi uchta asosiy omilga bog'liq:

1. banklarning risklarni boshqarish tizimi va kreditlash strategiyasi;
2. davlat tomonidan yaratilgan institutsional va huquqiy shart-sharoitlar;
3. bank amaliyotida qo'llanilayotgan kredit mexanizmlarining zamonaviyligi va moslashuvchanligi.

Xalqaro tadqiqotlar mazkur yo'nalishning nazariy asoslarini shakllantirsa, milliy hisobotlar va mahalliy ilmiy ishlar O'zbekistonda investitsion kreditlash jarayonining amaliy holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi hamda ushbu dissertatsiyaning ilmiy-nazariy poydevorini mustahkamlaydi.


Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirma subyektlari soni 358,1 ming tani tashkil etib, har 1000 nafar aholiga o'rtacha 12,1 ta kichik biznes subyekti to'g'ri keladi. 2024-yil davomida 77,0 mingta yangi kichik korxonaning tashkil etilgani kichik biznes sektorida investitsion faollik va moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning yuqoriligidan dalolat beradi.

Biroq, 2021-yilda qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkich – 462,8 mingta faol kichik korxona bilan solishtirilganda, 2022-2024-yillar davomida faol subyektlar sonining qisqarishi kuzatilmoqda. Mazkur holat investitsion moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, kreditlash jarayonidagi qiyinchiliklar hamda biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq tizimli omillarning mavjudligini ko'rsatadi.

Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha tarkibi investitsion kreditlarga bo'lgan ehtiyoj darajasi turli sohalarda farqlanishini yaqqol namoyon etadi. 2025-yil boshiga kelib, kichik biznes subyektlarining eng katta ulushi savdo sohasiga to'g'ri kelib, ushbu tarmoqda 136,352 mingta korxona faoliyat yuritmoqda, bu umumiy sonning qariyb 38 foizini tashkil etadi. Savdo sohasida investitsion kreditlarga ehtiyoj nisbatan past bo'lib, asosan aylanma mablag'larni moliyalashtirish ustunlik qiladi.

Sanoat tarmog'ida esa 54,692 mingta kichik korxona faoliyat yuritib, ularning ulushi 15 foizni tashkil etadi. Ushbu tarmoq texnologik yangilanish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda asosiy kapitalga yo'naltiriladigan investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu sababli sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari investitsion kreditlarning asosiy iste'molchilari hisoblanadi va tijorat banklari kredit siyosatida muhim o'rin egallaydi.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) importidagi ulushi



O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot, ish va xizmatlar importidagi ulushi 2020-2024-yillar davomida sezilarli darajada tebranishlarni boshdan kechirdi. Xususan, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 51,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda pandemiyadan keyingi iqtisodiy noaniqliklar fonida keskin pasayib, 45,2 foizga tushdi. Keyingi yillarda importdagi ulushning bosqichma-bosqich tiklanishi kuzatilib, 2022-yilda 49,5 foizga, 2023-yilda esa 50,5 foizga yetdi. 2024-yilda ushbu ko'rsatkich biroz kamayib, 49,8 foizni tashkil etdi. Umuman olganda, 2020-2024-yillar oralig'ida kichik biznesning importdagi ulushi 1,9 foiz punktga qisqargan.

Mazkur dinamik tahlil shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning import faoliyati bevosita tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan investitsion kreditlar hajmi va mavjudligiga bog'liq. 2021-yildagi keskin pasayish banklarning pandemiyadan keyingi davrda kredit risklarini kamaytirish maqsadida investitsion kreditlash hajmini qisqartirgani bilan izohlanadi. Natijada kichik biznes subyektlarining chet eldan texnologik uskunalar, ishlab chiqarish vositalari va xomashyo import qilish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan.

2022-2023-yillarda import ulushining qayta tiklanishi banklar tomonidan tiklanish kreditlari ajratilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan imtiyozli kredit liniyalarining kengaytirilishi hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning faollashuvi bilan bog'liq. Ushbu davrda investitsion kreditlar kichik biznesning import imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ulushi 50 foizdan yuqori darajaga chiqishiga xizmat qilgan.

2024-yilda kuzatilgan nisbiy pasayish esa foiz stavkalarining oshishi, garov talablarining qat'iylashuvi, banklar tomonidan kredit portfeli sifatini yaxshilash maqsadida riskli kreditlashga ehtiyotkor yondashuv hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ayrim tovar va texnologiyalar bo'yicha importni qisman almashtirish jarayonlarining kuchayishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion kreditlari kichik biznesning import faoliyati va texnologik yangilanishining muhim omillaridan biridir. Kreditlash shartlarini yumshatish, kafillik mexanizmlarini kengaytirish va imtiyozli investitsion kreditlarni takomillashtirish kichik biznesning import hajmini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish modernizatsiyasini qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish amaliyoti bank sektorining iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashdagi rolini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Mikrocreditbank, Agrobank, Xalq banki va "Ipak Yo'li" banklari kichik biznes investitsion loyihalarini moliyalashtirish hajmi va samaradorligi bo'yicha yetakchi moliya institutlari sifatida ajralib turadi.

Mikrocreditbank tomonidan 2023-yilda jami 5,1 trln so'm kredit ajratilib, 184 427 nafar mijoz moliyalashtirilgan. Ushbu mablag'lar hisobiga qariyb 100 mingta yangi ish o'rni yaratilgan bank investitsion kreditlarining bandlikka bevosita ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 1,7 trln so'm kredit ajratilib, 91 903 ta ish o'rni tashkil etilgan. Shuningdek, 2023-yilda bank orqali 10 942 ta yangi kichik korxona tashkil etilib, investitsion kreditlarning biznes-inkubatsiya jarayonidagi rag'batlantiruvchi roli tasdiqlandi. Qayta moliyalashtirish doirasida 4,4 trln so'm kredit undirilishi bank kredit portfelining intizomiy darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Agrobankning 2023-yil yakuni bo'yicha kredit portfelida mikrokorxonalar ulushi 19 foizni, kichik va o'rta biznes ulushi esa 31 foizni tashkil etdi. Bu bankning qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va savdo tarmoqlarida investitsion kreditlash bo'yicha ixtisoslashganini ko'rsatadi. Agrobank investitsion kreditlari asosan asosiy vositalar xaridi, qayta ishlash quvvatlarini yaratish hamda texnologik modernizatsiya jarayonlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

"Ipak Yo'li" banki xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni kengaytirib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) tomonidan bankka 20 mln AQSh dollari miqdorida kredit liniyasi ajratilib, uning 10 mln dollari kichik biznes subyektlarini, 10 mln dollari esa yosh tadbirkorlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bankning "Advice for Small Businesses" dasturi doirasida kreditlar bilan bir qatorda biznes-rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv va bozor tahlili bo'yicha bepul konsalting xizmatlari ham taqdim etiladi.

Kapitalbank tomonidan kichik biznes uchun taklif etilayotgan investitsion kreditlar shartlari nisbatan moslashuvchan bo'lib, milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha yillik foiz stavkasi 24 foizdan, xorijiy moliyalashtirish asosidagi kreditlar bo'yicha esa 13 foizdan boshlanadi. Kredit muddati 120 oygacha, imtiyozli davr esa ayrim dasturlarda 3-6 oy etib belgilangan. Foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasiga 4 foiz punkt qo'shish orqali shakllantiriladi.

Shu bilan birga, tadqiqotlar kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish jarayonida qator metodologik va amaliy cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi. Eng muhim muammolar qatoriga garov talablarining yuqoriligi, moliyaviy ko'rsatkichlarga qo'yiladigan qat'iy talablar va kredit tarixining yetarli darajada shakllanmaganligi kiradi. Qonunchilikda nazarda tutilgan yengilliklar (100 mln so'mgacha garovsiz kredit, 150 mln so'mgacha kreditlarda garov talabining 50 foizga qisqartirilishi) mazkur muammolarni qisman yumshatgan bo'lsa-da, investitsion loyihalar uchun hali ham to'liq qulay sharoit yaratmagan.



Shuningdek, investitsion kreditlarning nisbatan yuqori foiz stavkalari, qisqa muddatli bo'lishi va qat'iy to'lov jadvallari kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy bosimni kuchaytiradi. Aksariyat kichik korxonalarda yetarli garov ta'minoti va kredit tarixi mavjud emasligi tijorat banklari uchun risk darajasini oshiradi.

Banklar tajribasini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Mikrocreditbank – mikro va oilaviy biznesni kreditlash bo'yicha yetakchi bank;
- Agrobank – qishloq xo'jaligi va sanoat investitsion loyihalarini moliyalashtirishda asosiy moliya instituti;
- Xalq banki – eksportga yo'naltirilgan kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi investitsion kreditlar bilan ajralib turadi;
- "Ipak Yo'li" banki – xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kichik biznesni imtiyozli kredit liniyalari orqali rag'batlantiradi.

Umuman olganda, tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishi iqtisodiyotning modernizatsiya jarayonini jadallashtirmoqda. Shu bilan birga, kredit siyosatini yanada moslashuvchan qilish, kafillik mexanizmlarini kengaytirish, foiz yukini kamaytirish va kredit tarixini shakllantirish tizimini takomillashtirish kichik biznesning barqaror rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha yuqori ulushi hamda iqtisodiy faollikdagi hal qiluvchi roli tijorat banklarining investitsion kreditlash faoliyatini strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylantirmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda tijorat banklari kichik biznesni moliyalashtirishda sezilarli faollik namoyish etmoqda. Jumladan, Mikrocreditbank tomonidan 2023-yilda 5,1 trln so'm kredit ajratilishi, 184 mingdan ortiq mijozning moliyalashtirilishi hamda 10 942 ta yangi kichik korxonaning tashkil etilishi bank investitsion kreditlarining iqtisodiy o'sish va bandlikka ijobiy ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Agrobank kredit portfelida kichik va o'rta biznes ulushining 31 foizni tashkil etishi, "Ipak Yo'li" bankining YETTB va IFC bilan hamkorlikda kichik biznes uchun 20 mln AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyalarini jalb etgani ushbu jarayonning amaliy jihatdan kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud tahlillar kichik biznesni investitsion moliyalashtirish metodologiyasida qator tizimli cheklovlar mavjudligini ham tasdiqlaydi. Xususan, banklarning yuqori garov talablari, foiz stavkalarining nisbatan qimmatligi, kredit tarixining yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy hisobotlarning to'liq yuritilmasligi hamda kredit shartlarining qat'iyligi ko'plab kichik tadbirkorlarning bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Davlat tomonidan joriy etilgan ayrim yengilliklar, jumladan 100 mln so'mgacha garovsiz kreditlar berilishi hamda 150 mln so'mgacha bo'lgan kreditlarda garov ta'minotining 50 foizgacha qisqartirilishi mazkur muammolarni qisman yumshatgan bo'lsa-da, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun bu choralar ko'p hollarda yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Import tarkibidagi tebranishlar ham investitsion kreditlash jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. 2020-2024-yillar oralig'ida kichik biznesning importdagi ulushi 51,7 foizdan 49,8 foizga pasaygan bo'lib, kreditlashdagi cheklovlar va umumiy makroiqtisodiy sharoitlar ushbu dinamikaga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, 2021-yildagi keskin pasayish banklarning pandemiyadan keyingi davrda ehtiyotkor kredit siyosatini yuritishi bilan izohlanadi. Bu holat investitsion kreditlarning kichik biznesni modernizatsiya qilish hamda import imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi omil ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda quyidagi ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kredit kafillik sxemalarini (Credit Guarantee Schemes – CGS) kengaytirish;
- foiz stavkalarini bozor tamoyillari asosida moslashtirish;
- garov talablarini real sektor imkoniyatlariga mos ravishda yumshatish;
- kreditlash jarayonida konsalting va biznes-rejalashtirish bo'yicha ko'makni kuchaytirish;
- xalqaro moliya institutlarining moliyalashtirish liniyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- alternativ moliyalashtirish vositalari (lizing, faktoring, kraudfunding)ni rivojlantirish.

Mazkur chora-tadbirlar tijorat banklarining kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytiradi, tadbirkorlarning investitsion faolligini oshiradi hamda iqtisodiyotning umumiy modernizatsiya sur'atlarini jadallashtiradi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, innovatsion loyihalar ko'payadi va O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Small Businesses and Entrepreneurship in Uzbekistan's Economic Landscape: A Macroeconomic Perspective (2019-2024)



2. Demirgüç-Kunt A., Pedraza A. va Ruiz C. (2023). Rivojlanayotgan bozorlar banklarining foydaliligi va moliyaviy barqarorligi. Jahon banki siyosiy tadqiqot ishlari, ishchi hujjat № 10245. Vashington, D.C.: Jahon banki.
3. Stiglitz J.E. va Weiss A. (1981). "Nomukammal axborotga ega bo'lgan bozorlarda kreditni ratsionallashtirish", *The American Economic Review*, 71(3), 393-410-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). 2020-2024-yillarga oid yillik statistik byulleten. <https://www.cbu.uz>.
5. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) (2023). KOB moliyaviy bo'shlig'i to'g'risidagi hisobot: O'zbekiston profili. <https://www.ifc.org>.
6. G'aniyev I. va Raxmatov F. (2022). "Tijorat banklarining kreditlash metodologiyasi va O'zbekistonda KOB subyektlarining kreditga kirish imkoniyati", *Moliyaviy va bank ishi sharhi*, 4(2), 66-81-betlar.
7. Mikrokreditbank (2023). Yillik hisobot – 2023. Toshkent: Mikrokreditbank.
8. Agrobank (2023). Kredit portfeli bo'yicha choraklik sharh. <https://www.agrobank.uz>.
9. Ipak Yo'li Bank (2024). IFC va YETTB hamkorligi bo'yicha sharh. <https://ipakyulibank.uz>.
10. Xalq Banki (2023). Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari. Toshkent: Xalq Banki.
11. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) (2024). Markaziy Osiyoda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash: O'zbekiston misolida. <https://www.ebrd.com>.
12. Abdullaeva Sh. (2021). *Bank ishi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
13. Karimov A. va Abdurahmonov B. (2023). "O'zbekistonda tijorat banklarining aktivlar tuzilmasi va daromadliligi: empirik dalillar", *Qo'llanma moliya jurnali*, 5(1), 34-45-betlar.
14. Osiyo taraqqiyot banki (2023). O'zbekiston mamlakat hamkorlik strategiyasi 2022-2026. Manba: OTB.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>